



XX ASR BOSHLARIDAGI MILLIY MATBUOTDA O'ZBEK MILLIY MUSIQA TA'LIMI KONSEPSIYASI

Xumoyun Xaydarov

Madaniyatshunoslik va nomoddiy
madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti
"Havaskorlik san'ati bilan ishlash" bo'limi mudiri
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19179938>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 19-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 21-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 23-mart 2026 yil

KEYWORDS

*jadidchilik, erta matbuot,
musiqa ta'limi, milliy musiqa,
konservatoriya, nota tizimi,
milliy o'zlik, musiqiy meros.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi milliy matbuotda o'zbek milliy musiqa ta'limi konsepsiyasining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Jadidchilik davri ma'rifatparvar ziyolilari tomonidan milliy musiqani saqlash, ilmiy asosda o'rganish va ta'lim tizimi orqali rivojlantirish g'oyalari ilgari surilgani ochib beriladi. Sayyid Ali Xo'ja hamda Shokir Sulaymon maqolalari misolida milliy va Yevropa musiqa tizimlari o'rtasidagi munosabat, nota savodi va professional ta'lim masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida milliy matbuot o'zbek milliy musiqa ta'limini milliy o'zlikni saqlash, musiqiy merosni tizimli ravishda o'rgatish va zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan konseptual qarashlar maydoni sifatida namoyon bo'lgani asoslanadi.

Tarixni o'rganish, uni yoritishda matbuotning o'rne doimo eng muhim va asosiy o'rinlarda bo'lib kelgan. Musiqa madaniyati tarixini o'rganishda ham ushbu manbalarga tayanilganligi musiqashunoslikka oid izlanishlardan ma'lum. Matbuotda chop etilgan ma'lumotlarning eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki. Unda ko'proq o'rganilayotgan davr, o'sha zamonga oid bo'lgan muammo va ularning yechimlari o'sha davr mutaxassislari tomonidan yoritilganligidir. Ularni o'rganish jarayonida tadqiqotchi ushbu davrni maqola yoxud axborotni chop ettirgan ijodkor nigohi bilan qarash imkoniga ega bo'ladi.

XX asrning boshlarida mamlakatimiz hududida turli o'zgarishlar yuzaga keladi. Jamiyatdagi bu o'zgarishlar natijasida barcha sohalaridagi kabi musiqa ta'limida ham zamon talabiga mos qarash va munosabatlarni aks eta boshlaydi. Boshqa tomondan mazkur jarayon ilg'or Yevropa madaniyatlarining Markaziy Osiyoda asta-sekinlik bilan qaror topishi, xususan, musiqa ta'limida yangicha tamoyillarning, jumladan zamonaviy universal nota yozuvining kiritilishi bilan to'ldirilganligini aytib o'tish lozimdir. Joylarda yangi maktablar vujudga kelib, o'quvchilar diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlardan ham saboq ola boshladilar. Ushbu ta'lim tizimi bilan birgalikda yangi *usul – jadid* maktablari ham muvaffaqiyatli faoliyat olib bordilar. Ma'rifatparvar ziyolilar musiqiy hayotga taalluqli jabhalarda ham e'tiborli ishlarni amalga oshirdilar. Matbuotda ushbu davr musiqa ta'limi uchun xizmat qilgan milliy musiqa atrofidagi fikrlar, undagi ma'lum muammolarni hal etishga qaratilgan maqola va tadqiqotlar

e'lon qilina boshlandi. Ularda keltirilgan ko'plab ma'lumotlar bevosita milliy musiqani saqlash, uni o'rganish, hamda o'rgatishga aloqador bo'lib, ushbu muammolarni hal etish bevosita ta'lim orqali amalga oshirilishi haqida so'z boradi. Ushbu davr ziyolilari o'z maqolalarida musiqaning nozik sirlarini kelajakda savod ko'rinishida o'rgatish lozimligini, aks holda bu tizim ma'lum shaxslarning tafakkurida saqlanib u bilan birga yo'qolib ketish xavfidan ogoh etishadi. Bundan tashqari musiqa ta'limi uchun shart – sharoitlar yaratish, keng ko'lamli ta'lim jarayonlarini yo'lga qo'yish g'oyalarini jamiyatga singdirishadi.

Erta matbuotda chop etilgan ana shunday maqolalardan biri *Sayyid Ali Xo'ja¹ning "Sanoyi nafisamiz o'ldi"*² maqolasidir. Ushbu maqolada muallif o'lkamizda ochilgan o'quv dargohlari xususida so'z yuritir ekan, unda Yevropa musiqasi bilan milliy musiqamizni solishtirish barobarida diatonik tovush qator va notalarning bizning musiqamizga nomutanosiblik jihatlariga e'tibor qaratadi. Ammo zamonaviy bilimlarni egallash, yangiliklarga intilish kabi tavsiyalarni berar ekan bunda o'zlik, milliylikni asrash kabi masalalarga e'tibor qaratishga urinadi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Oktyabr o'zgarishidan so'ng bizlar uchun ilm darvozalari daranglatib ochildi. Shuning bilan birga bizlar uchun sira oti eshitilmagan konservatoriyalar ochilmoqqa boshladi. Oti eshitilmagan konservatoriyalarda bolalar o'z musiqiysi, o'z kuylarini, o'z musiqiy tovushlariga o'rganmaydilar"³.

Maqolada muallif ushbu davrda olib borilayotgan ilg'or ishlarga biroz qarama – qarshi fikr yuritganday ta'sirot uyg'otadi. Bunga uning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Ovrupo musiqiy tovushi bizim musiqiy tushunuvimiz nuqtasidan qaraganda yanglishdir. Ya'ni ovrupolilar uchun bizning musiqiy tovushimiz yanglishdir. Agar bular Ovrupo musiqasiga o'rganib o'zlarinikidan xabarsiz qolsalar ul vaqt bizning musiqiy tovushlar ularga yanglish ko'rinib, u vaqt ular Turkiston musiqasini ilgariga olib bora olmaslar"⁴. Lekin ushbu fikrlardan yana bir tushuncha paydo bo'ladiki, bunda muallif ko'proq yod musiqiy madaniyatning kirib kelishi va yoshlar ushbu musiqalar ta'siriga tushib qolmasligi xavotiri namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada muallif yangi ochilgan ta'lim dargohlari, ularda olib borilayotgan yangicha ta'lim tizimiga emas balki ko'proq yoshlarni yevropacha musiqiy madaniyatga ergashmasliklari, aks holda ularni kutib turgan muammolarni tahlil etganligini anglash mumkin.

Shokir Sulaymon⁵ o'zining 1923-yil 24-avgustda chop etilgan "*milliy kuy va ashulalarimiz*" nomli maqolasida Farg'ona vodiysidagi ta'lim maskanlari faoliyatiga to'xtalib unda milliy musiqamizning holati, unga bo'lgan e'tiborning darajasi xususida so'z yuritadi. Ayniqsa, o'lkada musiqa ta'limiga yo'naltirilgan ta'lim dargohlarining kamligi, borlarida ham ko'proq boshqa millat yoshlari tahsil olayotganliklarini achinish bilan ta'kidlaydi: "Turkistonda boshqa ko'p ishlar qatorida hali bizning sahnemizning gullari ashulachilarimiz, milliy kuychilarimiz, milliy kuylarimiz ko'zga olinmayin unutilib yotadir. Ular uchun musiqa kuy maktablari, konservatoriyalar yo'qdir. Bo'lsada unda faqat shuning qadrini bilgan o'rislarga

¹ Sayyid Ali Xo'ja jadidchilik xarakati yetakchilaridan. Erta matbuotda ko'plab maqolalari bilan jamiyatda mavjud muammolar va ularning yechimlarini ilgari surgan ziyolilardan biri.

² Qizil bayroq. 1921. 3-avgust.

³ Qizil bayroq. 1921. 3-avgust.

⁴ O'sha manba.

⁵ Qarang: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shokir-sulaymon-uz/>. Shokir Sulaymon (asl nomi Sulaymonov Shokir) (1900, Qo'qon — 1942.5.9, Toshkent) — yozuvchi, adabiyotshunos va pedagog. 1916-yilda "usuli jadid" maktabini tugatib, Orenburgdagi "Husayniya" madrasasida tahsil ko'rgan.

kirib to'lib olganlar"⁶. Ta'lim dargohlarining faoliyati, ularda ko'proq yevropacha ta'limning ilgari surilishi muallifni xavotirga soladi. Bu maskanlarda milliy musiqaga bo'lgan sust e'tibordan ko'ngli to'lmaydi.

Ushbu muammolar xususida so'z yuritir ekan muallif uning e'tiborini Rossiya konservatoriyalari va u yerda olib boriladigan musiqa ta'limi o'ziga tortadi, bu borada uning o'zi; "Ichki Russiyaning har bir shahrida ayniqsa, Maskov, Petr kabi zo'r shaharlarida maxsus konservatoriyalar bordir kim, ashulachilarni maxsus hozirlik bilan hukumat hisobidan tarbiya qiladurlar" deya keltirib o'tadi. Yuqoridagi fikrlari bilan Shokir Sulaymon ushbu muammolarning yechimi sifatida milliy musiqaning yetuk ijrochilarini ta'lim olishiga sharoit yaratish lozimligi, ularning kelajak yoshlarini tarbiyalashdagi muhim o'rni xususida aniq takliflari bilan o'z davri hukumat a'zolariga yuzlanganday bo'ladi: "Endi bizda shunday barmoq bilan sanarlik uch to'rtta ko'zga ko'ringan ashulachilarimizni xukumat yubormag'on chog'da ham har shahar va oblastlardagi "ko'mak" maxsus yordam berib Toshkent va Maskov konservatoriyalariga yuborishsalar kerak"⁷. Muallif ushbu maqolasida musiqa ta'limining ushbu soha vakillari uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatishga intiladi. Zamonasining ilg'or ijodkorlari va ayniqsa o'quvchi yoshlarning taqdiriga befarq emasligini murakkab davr bo'lishiga qaramay matbuotda e'lon qilishga muvaffaq bo'ladi.

XX asr boshlaridagi milliy matbuot sahifalarida o'zbek milliy musiqa ta'limi masalasi dolzarb ma'rifiy va madaniy muammo sifatida ko'tarilganini kuzatish mumkin. Jadid davri ziyolilari milliy musiqani saqlash va rivojlantirishning eng muhim omili sifatida uni tizimli ta'lim asosida o'qitish zarurligini ta'kidlaganlar. Sayyid Ali Xo'ja va Shokir Sulaymon kabi mualliflar maqolalarida milliy va Yevropa musiqa tizimlari o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, zamonaviy bilimlarni egallash bilan birga milliy o'zlikni asrash g'oyasini ilgari surganlar. Ularning qarashlarida professional musiqa ta'limini yo'lga qo'yish, milliy ijrochilarni tayyorlash hamda maxsus ta'lim muassasalarini tashkil etish zarurati konseptual darajada asoslab berilgan. Shunday qilib, erta matbuot o'zbek milliy musiqa ta'limi konsepsiyasining shakllanishida muhim intellektual maydon vazifasini bajargan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жумаев А. Абдурауф Фитрат: Время, личность, культурная и научная деятельность. – Ташкент: 2022.
2. G'ofurbekov T. O'zbekiston musiqa madaniyati. – Toshkent: 2019.
3. Irzayev B. O'zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan. – Toshkent: 2017.
4. Yo'ldosheva S. O'zbekistonda muzika tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. – Toshkent: 1985.
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – Toshkent: 2002.
6. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – Toshkent: 1998.
7. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.

⁶ Qarang: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shokir-sulaymon-uz/>. Shokir Sulaymon (asl nomi Sulaymonov Shokir) (1900, Qo'qon — 1942.5.9, Toshkent) — yozuvchi, adabiyotshunos va pedagog. 1916-yilda "usuli jadid" maktabini tugatib, Orenburgdagi "Husayniya" madrasasida tahsil ko'rgan.

⁷ O'sha manba.

8. Xaydarov X. O'zbek milliy musiqa ta'limi va uning rivojlanish mezonlar. San.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2025.
9. Qizil bayroq. – 1921. 3-avgus
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shokir-sulaymon-uz/>

